



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

O'ZIGA XOSLIKDA MAHORAT...

Sharipova Laylo Frunzeyevna,

BuxDPI professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

Oybekova Begoyim,

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Zamonaviy she'riyatda ham aruz, ham barmoq she'riy tizimi vaznlarida birday ijod qilayotgan shoirlar barmoq bilan sanarli. Ular orasida Chorsham' Ro'zievning munosib o'rne bor. Maqolada shoirning ikki she'riy tizim vaznlarida yaratilgan she'rlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: aruz, barmoq she'riy tizimi, vazn, mubolag'a, tazod, mahorat, hazaj, musta'mal bahr.

O'zbek zamonaviy she'riyatida o'z o'rniga ega shoirlardan biri, tarjimon, jurnalist, "Do'stlik" ordeni, "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni sohibi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Chorsham' Ro'zievning "Sharqiy qutb", "Mahak tosh", "Afandi aldamaydi", "Ayro yo'llar", "Sevgini sog'indim", "Oshiqlik", "Saylanma" singari qator kitoblari nashr qilingan. Chorsham' Ro'zievda sokin fe'l-atvor, halim-hazinlik, beozorlik borligidan u ko'plarga ma'qul. Ammo unda shoirona buysunmas bir ruh ham borki, bu ruh tunlar bedor aylaydi, sarkashlik qiladi, tindirmaydi:

Ammo... toki jur'at bor ekan

Parvoz etib misoli bir qush.

Kengliklarga chiqib ket Chorsham',

Kengliklarda uyg'onadi ishq!

Shoir qo'msagan kenglik, avvalo, ko'ngil kengligi, tafakkur beadadligi. Goho shu kenglik topilmaydigandek tuyulsa, "Choponimni yelkamga tashlab Ketsam ko'ngil ketgan tomonga" deb qoladi. U tinimsiz izlanishda. Shu sabab she'riyati mavzusi rang-barang, ohanglari betakror. Ona, Vatan, do'stlik kabi o'nlab mavzularni muhabbat mavzusi birlashtirib turibdi. Bu fidoyi muhabbatdir, ya'ni bu muhabbat ta'masiz, faqat jonfidolikka asoslangan muhabbat. Shoir onaga, do'stga, yorga, elga, Vatanga muhabbat tuyg'usi orqali o'zlikni anglash, Xudoni tanish yo'lidan boradi. Aslida chin she'riyat shoirning poklanishi uchun vositadir:

Muhabbat dar/dida tunlar / yuragi po/ra Chorsham'man,

mafo'iylun / mafo'iylun / mafo'iylun / mafo'iylun

Ajab holim bilib bo'lmas, na oq-u qora Chorsham'man.

mafo'iylun / mafo'iylun / mafo'iylun / mafo'iylun

"Chorsham'man" radifli bu g'azal musta'mal bahr hisoblangan hazajning musammani solim vaznida yozilgan. Ohangi va radifi bilan "Uvaysiymen" radifli g'azalni eslatadi. Shoir "yuragi pora" deyish orqali mubolag'a, "oq-u qora" deyish bilan tazod badiiy san'atini yuzaga keltirar ekan, muhabbat insonni o'zini unutish darajasiga keltirishini ta'kidlaydi. Uning she'riyati aruz va barmoq she'riy tizimi vaznlari ko'magida muxlisiga etib boradi. Aksariyat buxoroliklarda aruzda she'r bitish saodati bor. Ehtimol bu "Qur'oni karim"ga dilning bog'lanishidandir. Shoir o'zbek g'azalchiligi rivojiga munosib hissa qo'sha oldi. Hazaj va ramal bahrining qator vaznlarida go'zal g'azallar bitar ekan, "Chorsham'" taxallusini qo'lladi. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Huvaydo singari yetuk shoirlar g'azallariga muxammaslar bog'lashga jur'at ham qildi. Yassaviyonalar yozish ham asli poklanish ehtiyojidan kelib chiqadi. Chorsham' Ro'ziev doim "Xudo" deb qadam tashlaydi, dunyoning o'tkinchiligini, faqat Alloh boqiyiligini angelaydi, Vatan, el poydorligini ta'minlovchi ulug' vositalardan biri til va adabiyot ekanini she'rlari orqali she'rxoniga uqtiradi:

Go'ro'g'lilari go'rdan, Siyovushlari qo'rdan,

Alpomishlari o'rdan sog' qolib chiqqan bu xalq.

Yovlari engsa kuchin, tinmagan olmay o'chin,

Bu turkiy olam uchun tog' bo'lib chiqqan bu xalq.

She'rning jarangdor chiqishini ta'minlash uchun ichki qofiyadan foydalanadi. U so'zga mas'uliyatli, so'z qo'llashda mohir. "So'zim deb-ku jahonda hech, o'zimga joy topolmasman, O'zim deb ham zamonda hech, so'zimga joy topolmasman" satrlariga diqqat qilsak, shoir so'zlarni bir teskari, bir yonma-yon qo'llash, bir tovushda farqlantirish mahorati orqali chuqur ma'no-mohiyatni ifodalay olgan. "Nazar tashla, nazar topsin nazarlar". Bunday ifodalar shoirning o'ziga xosligini namoyish qiladi.

Bizga bahor begonadur borgan sari,

Ko'nglimiz ham vayronadur borgan sari.

Shodon, erib yurar edik avvallari,

Endi umr g'amxonadur borgan sari.

Bu satrlar har bir o'zbekka dil qadar yaqin. Chorsham' Ro'zievning o'nlab

she'rlari qo'shiqqa aylangan va iste'dodli hofizlar tomonidan kuylab kelinadi. She'rlari qo'shiq bo'lgan chin shoir ikki karra baxtli. Chunki uning she'ri kuy qanotida el ko'ngliga kirib boradi va dillarda bir umr muhrlanishiga imkon tug'iladi. Shoirning o'ziga xos she'riyati, go'zal tarjimalari, jurnalist sifatidagi faoliyati uning el ko'nglidan joy olganiga dalildir.